


**FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2022-YIL YANVAR-OKTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Tel.: 73-241-96-28

www.farstat.uz

Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022-yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida Farg'ona viloyati korxonalarini tomonidan 24 528,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,2%ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat bo'lib, 5,1 %ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi
ulushi, foizda**

2021-yil

B

0,5%

2022-yil


B

0,3%

yanvar-oktabr

yanvar-oktabr

Ishlab chiqaradigan sanoat



2021-yil
yanvar-oktabr


93,6%

2022-yil
yanvar-oktabr

93,2%


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2021-yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,4 % (12,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,2% (26,1%) va quyi texnologiyalisi – 55,3% (54,0%)ni tashkil etdi.

■ 2021-yil ■ 2022-yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,6 % (2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 116,4%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 39,3% (2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,8 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6% (2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 % (2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 129,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagি mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



yanvar-oktabr



2022-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 192,8 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 2,2%ga ko‘paygan), 263,5 ming tonna dizel yoqilg‘isi (17,2 % kamaygan), 100,5 ming tonna kalava ip mahsulotlari (10,4%ga kamaygan) hamda 39069,3 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (34,1%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagι mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-oktabr	2022-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	188,7	192,8	4,1
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	214,4	188,7	-25,7
Paxta chigitı, ming t.	55,0	65,0	10,0
O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.	14,9	12,8	-2,1

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarilishi



Karbamid Ming. t

2021-yil

128,6

2022-yil

120,8



Dizel yoqilg'isi Ming. t

2021-yil

318,4

2022-yil

263,5

Portlandsement . t



2021-yil

826,6

2022-yil

842,7

Etil spirti Ming. l



2021-yil

13849,0


2022-yil

13167,0

Farg'ona viloyatida 2022-yil yanvar-oktabr oylarida jami 120,8 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish 263,5 ming tonna, portlandsement ishlab chiqarish 842,7 ming tonna . Etil spirt ishlab chiqarish 13167,0 ming litrni tashkil etgan .

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 177,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9%ni, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 104,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 2 423,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 11,9 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 2 831,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 12,4 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 375,6 mlrd.so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 612,5 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 15,8 %ga o'sgan.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 57,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 53,0 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 mlrd so'mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 6 048,0 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 29,7 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 7660,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 33,5 %ni tashkil etdi va 6,2 punktga kamaydi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4% ni ya'ni jami 888,8 mlrd.so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 4,4%ni tashkil etib 1 000,2 mlrd.so'mga tengdir. Farg'ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 111,4 mlrd.so'mga ortgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (farmasevtika)

2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 82,5 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha 28,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 2 122,0 mlrd.so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 10,4 %ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari jami ishlab chiqariladigan sanoatining 4,9 %ni tashkil etib, 1 123,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish sanoatining jami sanoatdagi ulushi 2,3 %ni ya'ni 469,9 mlrd.so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish sanoatining jami sanoatdagi ulushi 2,5 %ni ya'ni 563,2 mlrd.so'mni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonaları tomonidan 2022-yıl yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 394,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotları hajmning 5,7%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 233,1 mlrd.so'mga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonaları tomonidan sanoat mahsulotlarını ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-oktabr	2022-yil yanvar-oktabr	Farqi (+/-)
Elektroenergiya, mln.kVt.s	334,4	336,2	1,8
Issiqlik energiyasi, ming.gkal	1371,2	1074,8	-296,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 192,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-oktabr	2022-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	13,6	18,2	4,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln.so'm</i>	13,8	24,4	10,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,6 mlrd.so'm yoki 34,0 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,6 mlrd.so'm va 27,3%ga ko'paygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 212,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 107,9%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 33,5%ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-oktabr

38,9%

2022-yil
yanvar-oktabr

36,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-oktabr

61,1%


2022-yil
yanvar-oktabr

63,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 46,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 15,4%ni va Uchko'prik tumanida 15,6%ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 1267,3 mlrd.so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,4 %i, Farg'ona shahrida 1212,2 mlrd.so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 14,8 %i shuningdek, Uchko'prik tumanida 1280,3 mlrd. so'mlik, 15,6 %ni tashkil etdi.




8 084,1 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-oktabr

8 212,8 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-oktabr



Jami sanoat
ishlab chiqarish
hajmida iste'mol
mahsulotlarining
ulushi

2021-yil

109,9%

2022-yil

107,9%

**Farg'ona viloyati hududlari kesimida
Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona shahriga to'g'ri kelib, 23,3%ni, shuningdek, Qo'qon shahri 18,2%ni, Toshloq tumani 11,4%ni, Uchko'prik tumani 7,6% ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati

2021-yil

21 734,6 mlrd.so'm

2022-yil

24 528,3 mlrd.so'm

yanvar-oktabr



2021-yil

107,9%

2022-yil

105,8 %

Marg'ilon.sh	1119,1	100,2
Quvasoy.sh	1301,2	106,4
Qo'qon.sh	4471,8	116,2
Farg'ona.sh	5722,8	98,8
Yozyovon.t	167,7	100,2
Furqat.t	385,9	112,8
Dang'ara.t	638,8	111,2
Farg'ona.t	696,8	116,4
O'zbekiston.t	727,9	100,2
Toshloq.t	2792,8	102,0
So'x.t	84,0	99,3
Rishton.t	306,8	105,6
Uchko'prik.t	1863,2	101,3
Quva.t	493,4	109,2
Beshariq.t	662,7	110,8
Buvayda.t	543,4	98,7
Bag'dod.t	787,5	118,4
Qo'shtepa.t	1224,3	123,5
Oltiariq.t	538,2	

FHI, %da

mlrd. so'm

yanvar-oktabr

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi tumanlar orasida Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 12,9% shuningdek, Qo'qon shahri 16,8 %, Farg'ona shahri 18,1%ni tashkil etadi.

4939,6 mld. so'm

2021-yil yanvar-oktabr

5190,1 mld. so'm

2022-yil yanvar-oktabr

63,2%

Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
nooziq-ovqat
mahsulotlarining
ulushi

111,8 %

2021-yil

108,9 %

2022-yil

Marg'ilon.sh	92,9	414,4
Quvasoy.sh	112,7	85,6
Qo'qon.sh	109,0	872,2
Farg'ona.sh	134,3	939,1
Yozyovon.t	113,8	60,5
Furqat.t	151,7	240,5
Dang'ara.t	108,3	221,6
Farg'ona.t	119,5	51,8
O'zbekiston.t	73,8	71,6
Toshloq.t	96,5	427,5
So'x.t	100,7	25,1
Rishton.t	82,4	71,7
Uchko'prik.t	88,8	670,4
Quva.t	110,4	92,6
Beshariq.t	160,9	177,0
Buvayda.t	109,9	194,6
Bag'dod.t	93,3	272,6
Qo'shtepa.t	135,2	188,1
Oltiariq.t	153,7	113,1

o'sish sur'ati

mld. so'm

yanvar-oktabr

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 20,5 %, Bag'dod tumaniga 10,3%ni , shuningdek, Qo'qon shahri 12,1% ni, Farg'ona shahri esa 9,2 %ni tashkil etdi.


	o'sish sur'ati	mlrd. so'm
Marg'ilon.sh	113,5	269,0
Quvasoy.sh	106,5	74,5
Qo'qon.sh	110,8	361,2
Farg'ona.sh	103,1	273,1
Yozyovon.t	88,5	55,0
Furqat.t	81,8	113,2
Dang'ara.t	83,3	83,8
Farg'ona.t	118,1	88,3
O'zbekiston.t	140,8	88,2
Toshloq.t	152,6	45,9
So'x.t	111,4	40,0
Rishton.t	140,1	63,7
Uchko'prik.t	116,8	609,9
Quva.t	94,3	141,9
Beshariq.t	115,9	61,4
Buvayda.t	105,2	131,1
Bag'dod.t	106,9	306,2
Qo'shtepa.t	74,0	101,9
Oltiariq.t	98,3	67,8

3 144,5 mlrd.so'm

2021-yil yanvar-oktabr

3 022,7 mlrd.so'm

2022-yil yanvar-oktabr




Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
oziq- ovqat
mahsulotlarining
ulushi



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (18976,4 ming so'm), Qo'qon shahrida (17109,4 ming so'm), Quvasoy shahrida (13334,1 ming so'm) hamda Toshloq tumanida (13212,2 ming so'm), Uchko'prik tumanida (7783,2 ming so'm).

Farg'ona viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2092,3 ming.so'm bo'lgani holda, Qo'qon shahrida – 4848,8 ming.so'mga, Toshloq tumanida 2239,6 – Uchko'prik tumanida 5348,3 – Farg'ona shahrida 4019,6 ming so'mga, to'g'ri keldi.

Farg'ona viloyati

2021-yil

2100,3 ming. so'm

2022- yil

2092,3 ming. so'm



2021-yil

107,9 %

2022-yil

105,8 %

Yozyovon.t	98,0	998,4
Furqat.t	116,7	2882,0
Dang'ara.t	97,7	1674,5
Farg'ona.t	118,1	686,1
O'zbekiston.t	98,3	644,6
Toshloq.t	98,0	2239,6
So'x.t	105,2	804,0
Rishton.t	100,3	645,6
Uchko'prik.t	97,9	5348,3
Quva.t	98,3	875,9
Beshariq.t	144,0	1011,2
Buvayda.t	105,6	1368,2
Bag'dod.t	98,0	2571,8
Qo'shtepa.t	102,1	1448,4
Oltiariq.t	124,3	819,3
Marg'ilon.sh	98,5	2799,8
Quvasoy.sh	107,7	1640,1
Qo'qon.sh	106,4	4848,8
Farg'ona .sh	123,2	4019,6

ming. so'm

yanvar-oktabr

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022- yilning yanvar -oktabr oylarida % (foiz)da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 177,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,5 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So'x, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan . Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Furqat tumani (95,3%), Buvayda tumani (84,5%), Uchko'prik tumani (84,1%), Bag'dod tumani (74,3%), Rishton tumani (57,5%),tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Quva tumani (25,9%), Farg'ona tumani (24,8%), Toshloq tumani (11,1%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra

Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida 11514 ta sanoat korxonalarini ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 10785 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1472 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 13,6 %) Qo'qon shahriga, 1276 tasi (11,8%) Farg'ona shahriga, 1054 tasi (9,8 %) Marg'ilon shahriga, 718 tasi (6,7%) Uchko'prik tumaniga, 669 tasi (6,2 %) Dang'ara tumaniga, 649 tasi (6,0 %) O'zbekiston tumaniga to'gri kelmoqda.

